

ISLOM SIVILIZATSIYA MARKAZI – BUYUK O‘TMISHIMIZNING MEROSI

Rustamov Jamoliddin Mirzakarimovich

Moskva davlat xalqaro munosabatlar institute Toshkent filiali direktor o‘rinbosari

Tel: +99890 996-39-40

E-mail: jrustamov651@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islom sivilizatsiya markazining tariximizni Islomgacha va Islom davrida musulmon davlatlari ma'naviy merosini asrash, ilmiy jihatdan o'rganish va xalqaro miqyosda targ'ib etishdagi o'rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, Markazning islom dini tarixi, madaniyati, ilm-fan va ma'rifat taraqqiyotini yoritishdagi faoliyati, nodir qo'lyozmalarni saqlash, tadqiq etish va raqamlashtirish borasidagi ishlari yoritilgan. Tadqiqotda Islom sivilizatsiya markazining Turkiy davlatlar tashkiloti a'zo mamlakatlari hamda boshqa musulmon davlatlari bilan ilmiy va madaniy hamkorligi, umumiy tarixiy-ma'naviy merosni asrash va kelajak avlodga yetkazishdagi o'rni ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, Markaz faoliyatining xalqaro madaniy diplomatiya, konfessiyalararo bag'rikenglik va sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Islom sivilizatsiya markazi musulmon olamining umumiy ma'naviy boyligini saqlash va uni jahon ilmiy hamjamiyatiga tanitishda muhim ilmiy-ma'rifiy maskan ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Islom sivilizatsiyasi, Islom sivilizatsiya markazi, musulmon davlatlari, Turkiy davlatlar tashkiloti, ma'naviy meros, islom madaniyati, islom tarixi, qo'lyozmalar, ilm-fan, madaniy diplomatiya, tarixiy meros, xalqaro hamkorlik.

ЦЕНТР ИСЛАМСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ - НАСЛЕДИЕ НАШЕГО ВЕЛИКОГО ПРОШЛОГО

Рустамов Жамолiddин Мирзакаримович

*Заместитель директора Ташкентского филиала Московского
государственного института международных отношений*

Тел: +99890 996-39-40

Э-маил: jrustamov651@gmail.com

Аннотация. В настоящей статье анализируются роль и значение Центра исламской цивилизации в сохранении, научном изучении и международной популяризации исторического наследия нашей страны как до принятия ислама, так и в исламский период, а также духовного наследия мусульманских государств. Особое внимание уделено деятельности Центра по освещению истории ислама, исламской культуры, развития науки и просвещения, а также работе по сохранению, исследованию и цифровизации редких рукописей. В статье рассматривается научное и культурное сотрудничество Центра исламской цивилизации с государствами - членами Организации тюркских государств, а также с другими мусульманскими странами, анализируется его вклад в сохранение общего историко-культурного и духовного наследия и передачу его будущим поколениям.

Кроме того, раскрывается роль Центра в развитии международной культурной дипломатии, межконфессиональной толерантности и межкультурного диалога. Результаты исследования свидетельствуют о том, что Центр исламской цивилизации является важным научно-просветительским учреждением, обеспечивающим сохранение общего духовного наследия мусульманского мира и его представление мировому научному сообществу.

Ключевые слова: исламская цивилизация, Центр исламской цивилизации, мусульманские государства, Организация тюркских государств, духовное наследие, исламская культура, история ислама, рукописи, наука, культурная дипломатия, историческое наследие, международное сотрудничество.

THE CENTER OF ISLAMIC CIVILIZATION AS THE HERITAGE OF OUR GREAT PAST

Rustamov Jamoliddin Mirzakarimovich

Moscow State Institute of International Relations Deputy Director of Tashkent
Branch

Phone number: +99890 996-39-40

E-mail: jrustamov651@gmail.com

Abstract. *This article examines the role and significance of the Center of Islamic Civilization in preserving, conducting scholarly research on, and promoting internationally the historical heritage of our country from both the pre-Islamic and Islamic periods, as well as the spiritual heritage of Muslim states. Particular attention is devoted to the Center’s activities in studying and presenting the history of Islam, Islamic culture, the development of science and education, and its efforts to preserve, research, and digitize rare manuscripts. Drawing upon academic sources, the study analyzes the Center’s scholarly and cultural cooperation with the member states of the Organization of Turkic States as well as with other Muslim countries. It further examines the Center’s contribution to safeguarding the shared historical, cultural, and spiritual heritage and transmitting it to future generations.*

The article also highlights the Center’s role in advancing international cultural diplomacy, interfaith tolerance, and intercivilizational dialogue. The findings demonstrate that the Center of Islamic Civilization serves as an important scholarly and educational institution dedicated to preserving the common spiritual heritage of the Muslim world and introducing it to the international academic community.

Keywords: *Islamic civilization, Center of Islamic Civilization, Muslim states, Organization of Turkic States, spiritual heritage, Islamic culture, history of Islam, manuscripts, science, cultural diplomacy, historical heritage, international cooperation.*

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida xalqlarning tarixiy xotirasi, milliy va diniy qadriyatlarini asrab-avaylash hamda jahon ilmiy hamjamiyatiga xolis va ilmiy asoslangan holda yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, islom sivilizatsiyasining jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini chuqur o‘rganish, buyuk allomalar ilmiy merosini tadqiq etish va keng targ‘ib qilish nafaqat musulmon mamlakatlari, balki butun insoniyatning madaniy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Markazning tashkil etilishi O‘zbekiston Respublikasida tarixiy va diniy merosni ilmiy asosda o‘rganish, saqlash hamda xalqaro miqyosda targ‘ib etishga qaratilgan davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va g‘oyasi asosida 2026-yilda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi — bu oddiy muzey emas, balki fan, madaniyat va ta’lim masalalariga ixtisoslashgan xalqaro ko‘lamda faoliyat yuritadigan markazdir. U O‘zbekistonning Islomdan avvalgi va islom davri madaniy merosini zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda ilmiy tadqiqotlar bilan uyg‘unlashtiradi.

Markazda jamlangan noyob eksponatlar islom sivilizatsiyasi O‘zbekiston hududida asrlar davomida ilm-fan, ta’lim, tarbiya, madaniyat va ma’rifat orqali rivojlanib kelayotganini yaqqol namoyon etadi. Tashrif buyuruvchilarni nafaqat bebaho artefaktlar, balki interaktiv o‘quv laboratoriyalari, virtual ko‘rgazmalar, “Vaqt kapsulalari”, “Sivilizatsiyalar va kashfiyotlar devorlari” hamda dunyo bo‘ylab barcha uchun ochiq bo‘lgan ko‘p tilli raqamli manbalar kutadi.

Bugungi kunda musulmon davlatlari o‘rtasida ilmiy, madaniy va ma’naviy hamkorlikni mustahkamlash, umumiy tarixiy merosni saqlash hamda yosh avlodni bag‘rikenglik, ma’rifat va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda Islom sivilizatsiya markazi xalqaro ilmiy konferensiyalar, ko‘rgazmalar, qo‘lyozmalarni tadqiq etish va raqamlashtirish loyihalari orqali musulmon mamlakatlari o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shmoqda. Markaz faoliyati Islom hamkorlik tashkiloti (OIC), Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (UNESCO) va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, so‘nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida tarixiy-madaniy merosni asrash, ilmiy almashinuvlarni kengaytirish va umumiy sivilizatsion qadriyatlarni targ‘ib etishga qaratilgan hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekistonning mazkur tashkilotdagi faol ishtiroki Islom sivilizatsiya markazi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, turkiy xalqlarning islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini ilmiy jihatdan yoritish hamda qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, qo‘lyozmalar fondlarini o‘rganish, tarixiy obidalarni tadqiq etish va ilmiy ekspeditsiyalarni tashkil etish borasidagi hamkorlik umumiy ma’naviy merosni asrashga xizmat qiladi.



Mazkur tadqiqotning **maqsadi** Islom sivilizatsiya markazining musulmon davlatlari ma'naviy merosini asrash, islom dini tarixi va madaniyatini ilmiy asosda yoritish hamda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi ilmiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning **vazifalari** sifatida Islom sivilizatsiya markazining tashkil etilish omillari va asosiy faoliyat yo'nalishlarini o'rganish, uning musulmon davlatlari bilan ilmiy hamkorligini tahlil qilish, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi o'rni va istiqbollari baholash hamda islom dini tarixi va madaniyatini xalqaro miqyosda targ'ib etishdagi hissasini ilmiy manbalar asosida yoritish belgilandi.

Tadqiqotda **tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, manbashunoslik va kontent-tahlil** metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar Islom sivilizatsiya markazi faoliyatini ilmiy nuqtai nazardan baholash, uning musulmon mamlakatlari va Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorligining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, Islom sivilizatsiya markazini o'rganish nafaqat O'zbekistonning boy ilmiy va ma'naviy merosini chuqur anglash, balki musulmon dunyosining umumiy sivilizatsion qadriyatlarini asrash, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro muloqotni mustahkamlash nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini va uni kompleks tarzda tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

Islom sivilizatsiyasining shakllanishi va jahon tamaddunidagi o'rni

Islom sivilizatsiyasi insoniyat tarixidagi eng yirik va uzoq davom etgan sivilizatsiyalardan biri bo'lib, u VII asrda Arabiston yarimorolida islom dinining vujudga kelishi bilan shakllana boshladi. Mazkur sivilizatsiya qisqa vaqt ichida diniy-ma'naviy qadriyatlar doirasidan chiqib, ilm-fan, ta'lim, madaniyat, huquq, me'morchilik, tibbiyot, astronomiya, matematika va falsafa kabi ko'plab sohalarda yuksak taraqqiyotga erishdi. Shu jihatdan islom sivilizatsiyasi nafaqat musulmon xalqlarining tarixiy merosi, balki jahon tamaddunining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi.

Islom sivilizatsiyasining shakllanishida Qur'oni Karim va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) sunnati asosiy ma'naviy-me'yoriy manba bo'lib xizmat qildi. Qur'oni Karimning ilk nozil qilingan oyatlarida ilm olish, tafakkur qilish, kuzatish va o'rganishga da'vat etilishi musulmon jamiyatida ilm-fanga alohida e'tibor berilishiga zamin yaratdi. Islom ta'limotida ilm egallash har bir musulmon uchun



muhim fazilat sifatida baholanganligi sababli musulmon dunyosida ilmiy izlanishlar keng rivojlandi.

VIII–XIII asrlar tarixda “Islom uygʻonish davri” yoki “Musulmon Renessansi” sifatida eʼtirof etiladi. Aynan shu davrda Bagʻdod, Damashq, Qohira, Buxoro, Samarqand, Marv, Xiva va Kordova kabi shaharlar jahon ilm-fanning yirik markazlariga aylandi. Abbosiylar davrida Bagʻdod shahrida tashkil etilgan **“Bayt ul-Hikma” (Donishmandlar uyi)** yunon, fors va hind ilmiy merosini arab tiliga tarjima qilish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda yangi bilimlarni yaratishda muhim oʻrin tutdi. Bu markazda matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, falsafa va tabiiy fanlar boʻyicha keng koʻlamli ilmiy faoliyat olib borildi.

Islom sivilizatsiyasining taraqqiyotida Markaziy Osiyo zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalarning hissasi alohida ahamiyat kasb etadi. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos solib, **“al-jabr”** usulini ilmiy muomalaga kiritdi. Uning ilmiy ishlari keyinchalik Yevropa matematika maktablarining rivojiga katta taʼsir koʻrsatdi. Ahmad al-Fargʻoniy astronomiya va geografiya sohalaridagi tadqiqotlari bilan mashhur boʻlib, uning asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, uzoq vaqt davomida Yevropa universitetlarida asosiy darsliklardan biri sifatida foydalanilgan.

Abu Rayhon Beruniy geodeziya, astronomiya, mineralogiya, tarix va etnografiya fanlariga ulkan hissa qoʻshdi. Uning ilmiy metodlari kuzatish, tajriba va qiyosiy tahlilga asoslangani bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino esa tibbiyot, falsafa va tabiiy fanlar boʻyicha yaratgan asarlari orqali Sharq va Gʻarb ilm-fanning rivojiga beqiyos taʼsir koʻrsatdi. Ayniqsa, uning **“Al-Qonun fit-tibb”** asari bir necha asr davomida Yevropa tibbiyot maktablarida asosiy qoʻllanma sifatida oʻqitilgan.

Hadis ilmining rivojida Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy, islom aqidasi va kalom ilmining shakllanishida Abu Mansur Moturidiy, fiqh ilmining taraqqiyotida Burhoniddin Margʻinoniy kabi mutafakkirlarning xizmatlari beqiyosdir. Ularning asarlari nafaqat diniy ilmlarning rivojlanishiga, balki musulmon jamiyatida huquqiy tafakkur, axloqiy qadriyatlar va bagʻrikenglik tamoyillarining mustahkamlanishiga ham xizmat qildi.

Islom sivilizatsiyasi faqat ilmiy meros bilangina emas, balki meʼmorchilik, shaharsozlik va sanʼat rivojiga qoʻshgan hissasi bilan ham alohida ajralib turadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Istanbul, Qohira, Damashq va Andalusiyadagi tarixiy obidalar oʻz davrining muhandislik, meʼmorchilik va badiiy tafakkur namunalarini



aks ettiradi. Masjidlar, madrasalar, kutubxonalar va rasadxonalar nafaqat diniy markazlar, balki ilmiy va madaniy hayotning asosiy maskanlari sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Islom sivilizatsiyasining muhim jihatlaridan biri turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi ilmiy almashinuvni rag'batlantirganidadir. Musulmon olimlari qadimgi yunon, hind va fors ilmiy merosini o'rganib, uni rivojlantirish bilan birga, keyinchalik ushbu bilimlarning Yevropaga yetib borishida vositachi vazifasini ham bajardilar. Natijada Yevropa Uyg'onish davri ilmiy taraqqiyotiga zamin yaratgan ko'plab ilmiy g'oyalar aynan islom sivilizatsiyasi orqali G'arb ilmiy muhitiga kirib bordi. Bu holat islom sivilizatsiyasining jahon tamaddunidagi o'rni va tarixiy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda islom sivilizatsiyasining boy ilmiy va madaniy merosini chuqur o'rganish, uni ilmiy asosda targ'ib qilish va kelajak avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston hududida yashab ijod qilgan allomalar merosini tadqiq etish, nodir qo'lyozmalarni saqlash va raqamlashtirish, tarixiy obidalarni asrash hamda ularni xalqaro ilmiy hamjamiyatga tanitish borasida amalga oshirilayotgan ishlar islom sivilizatsiyasini o'rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi islom sivilizatsiyasi tarixini xolis ilmiy asosda yoritish, musulmon xalqlarining umumiy ma'naviy merosini saqlash va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ilmiy-ma'rifiy platforma vazifasini bajarmoqda.

Islom sivilizatsiya markazining tashkil etilishi va asosiy faoliyati

Islom sivilizatsiyasi insoniyat tarixida ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan sivilizatsiyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston hududidan yetishib chiqqan buyuk muhaddislar, faqihlar, mutakallimlar, tabiblar, matematiklar va astronomlar jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Mustaqillik yillarida ushbu boy ilmiy va ma'naviy merosni chuqur o'rganish, uni xalqaro miqyosda keng targ'ib etish hamda kelajak avlodga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ana shunday ezgu maqsadlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida Islom sivilizatsiya markazi tashkil etildi.

Markazni tashkil etish tashabbusi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u 2017-yil 15-iyunda Toshkent



shahrida bo‘lib o‘tgan **“Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi”** mavzusidagi videoselektor yig‘ilishida e‘lon qilingan. Mazkur tashabbusni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi **PQ–3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori** qabul qilindi. Ushbu hujjat Markazning huquqiy asoslarini belgilab berdi hamda uning tashkiliy tuzilmasi, vazifalari va faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashtirdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilayotgani haqida to‘xtalib, muqaddas dinimiz ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga, ilm-ma‘rifat yo‘liga da‘vat etishini, uni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatarga qo‘yadiganlar bilan murosa qilib bo‘lmasligini alohida ta‘kidlagan edi.

Markaz Toshkent shahridagi **Hazrati Imom majmuasi** hududida 10 gektar maydonda barpo etilgan. Bino uch qavatdan iborat bo‘lib, uzunligi 161 metr, eni 118 metrni tashkil etadi. Majmuaning umumiy foydalanish hududi 42 ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lib, gumbazining balandligi 65 metrga yetadi. Ushbu ulkan ko‘rsatkichlar markazni dunyodagi eng yirik islom sivilizatsiyasi markazlaridan biriga aylantirgan.

Majmua tarkibida 8 350 kvadrat metrlik muzey, 550 o‘rinli anjumanlar zali, zamonaviy laboratoriyalar, restavratsiya bo‘limlari hamda boy kutubxona mavjud. Kutubxona fondi bugungi kunda 45 mingdan ortiq bosma adabiyot va 350 mingta elektron manbani o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu yerda 2 mingdan ortiq qadimiy manbalar va 60 dan ziyod nodir Qur‘on qo‘lyozmalari jamlangan [39].

Islom sivilizatsiya markazida Islomdan avvalgi davr sivilizatsiyalari uchun ham alohida e‘tibor berilgan. O‘sha davrlarni yorituvchi “Vaqt devori” jami 250 metrni tashkil qiladi. Bu devorda xalqimizning kamida 3000 yillik davlatchiligi tarixi - barelyef, miniatyura va mahobatli rangtasvir asarlar ko‘rinishida aks ettiriladi.

Vaqt devorida islomdan avvalgi davrdagi ajdodlarimiz hayot tarzi, kundalik mashg‘ulotlari maxsus videolavhalar yordamida ko‘rsatib berilgan. Yurtimiz hududidan ilk davlatchilik shakllangan davrlardagi arxitektura, hunarmandlik, tasviriy san‘at, yozuv namunalarini “Vaqt devori”da yaqqol ko‘rishimiz mumkin.



Shu bilan birga, diniy e'tiqod, xalqimizning ozodlik uchun kurashlari ham shu devorda aks ettirilgan. Qadimgi manbalarda - To'maris, Shiroq, Spitamen kabi qahramonlar vatanimiz ozodligi uchun mardonavor kurashgani ham shu devordagi ma'lumotlarda aks etgan [40].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom sivilizatsiyasi Markazining ahamiyati va maqsadlarini quyidagicha ta'riflaydi: “Islom sivilizatsiyasining, islom ta'limotining zamini - aslida ilm-fan, madaniyat, ta'lim va tarbiyadir. Biz barpo etayotgan markazning bosh g'oyasi, asosi ham shu. Eng muhim tomoni - yurtimizdagi islom madaniyati bilan bog'liq bir necha ming yillik qadimiy o'tmish bir joyda - mana shu majmuada mujassam bo'ladi. Markaz bilan tanishgan odam ana shu tarixni yaqqol ko'rib, islom dini, bu avvalo, tinchlik, taraqqiyot va bag'rikenglik dini ekanini, o'zbek xalqining dunyo tamadduniga qo'shgan buyuk hissasini anglaydi” [28].

Markazning bosh maqsadi O'zbekiston hududida shakllangan boy islomiy ilmiy va madaniy merosni chuqur o'rganish, saqlash, ilmiy jihatdan tadqiq etish va xalqaro jamoatchilikka xolis hamda ishonchli manbalar asosida taqdim etishdan iborat. Shuningdek, Markaz faoliyati orqali islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini, uning tinchlik, bag'rikenglik, ilm-ma'rifat va ezgulik g'oyalariga asoslanganligini dunyo hamjamiyatiga yetkazish ko'zda tutilgan.

Markaz faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri O'zbekiston hududidan yetishib chiqqan buyuk allomalar ilmiy merosini tizimli ravishda tadqiq etishdir. Xususan, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Muin Nasafiy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ilmiy merosi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borish, ularning asarlarini nashr etish va xorijiy tillarga tarjima qilish Markazning ustuvor vazifalari qatoriga kiradi.

Markaz qoshida zamonaviy kutubxona va qo'lyozmalar fondini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu yerda O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan nodir qo'lyozmalar, qadimiy kitoblar, tarixiy hujjatlar hamda ilmiy nashrlarning elektron nusxalarini jamlash, kataloglashtirish va ilmiy muomalaga kiritish ishlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, hadis ilmi, fiqh, kalom, tafsir, tasavvuf, astronomiya, matematika va tibbiyotga oid qo'lyozmalarni ilmiy



tavsiflash hamda raqamlashtirish ishlari xalqaro standartlar asosida olib borilmoqda. Bu esa nodir manbalarni saqlash bilan birga, ularni dunyo olimlari uchun ochiq ilmiy resursga aylantirish imkonini yaratmoqda.

Markaz faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Elektron kutubxona, raqamli arxiv, interaktiv ekspozitsiyalar va multimedia texnologiyalari yordamida tashrif buyuruvchilarga islom sivilizatsiyasining tarixi va rivojlanish bosqichlari zamonaviy usullar orqali namoyish etiladi. Raqamlashtirish ishlari tarixiy manbalarni uzoq muddat saqlash, ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati Markaz ishining asosiy yoʻnalishlaridan biridir. Bu borada xalqaro konferensiyalar, ilmiy seminarlar, davra suhbatlari va simpoziumlar muntazam tashkil etilib, ularda Oʻzbekiston, Turkiya, Misr, Saudiya Arabistoni, Malayziya, Indoneziya, Qozogʻiston, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlarning yetakchi olimlari ishtirok etmoqda. Mazkur anjumanlarda islom tarixi, qoʻlyozmashunoslik, islom huquqi, aqida, tasavvuf, madaniy meros va zamonaviy sivilizatsiyalararo muloqot masalalari yuzasidan ilmiy fikr almashilmoqda.

Markaz xalqaro tashkilotlar bilan ham samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻygan. Ushbu hamkorlik doirasida qoʻlyozmalarni restavratsiya qilish, ilmiy ekspeditsiyalar oʻtkazish, koʻrgazmalar tashkil etish va yosh tadqiqotchilar malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunday hamkorlik Oʻzbekistonning islom sivilizatsiyasini oʻrganish boʻyicha xalqaro ilmiy markazlardan biri sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

Markazning yana bir muhim vazifasi islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat. Soʻnggi yillarda ayrim ekstremistik guruhlarining islom dini nomidan gʻarazli maqsadlarda foydalanishga urinishlari dinning asl mazmunini ilmiy asosda tushuntirish zaruratini yanada kuchaytirdi. Shu bois Markaz tomonidan islomning tinchlik, bagʻrikenglik, adolat, ilm-maʼrifat va oʻzaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarni ulugʻlovchi mohiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy va maʼrifiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Markaz yosh avlodning tarixiy xotirasini mustahkamlash va ilmiy tafakkurini rivojlantirishga ham katta eʼtibor qaratmoqda. Talabalar, tadqiqotchilar va keng jamoatchilik uchun maʼruzalar, koʻrgazmalar, ochiq darslar hamda maʼrifiy tadbirlar tashkil etilib, buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi keng targʻib qilinmoqda. Bu esa



yoshlarimiz ongida milliy g‘urur, vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi nafaqat tarixiy merosni saqlovchi muassasa, balki ilmiy tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik va madaniy diplomatiyani rivojlantiruvchi zamonaviy ilmiy-ma’rifiy markaz hisoblanadi. Uning faoliyati islom sivilizatsiyasining boy ilmiy va madaniy merosini chuqur o‘rganish, uni jahon ilmiy hamjamiyatiga xolis va ishonchli manbalar asosida taqdim etish, shuningdek, musulmon davlatlari o‘rtasida ilmiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan Islom sivilizatsiya markazi nafaqat O‘zbekiston, balki butun musulmon olamining umumiy ma’naviy merosini asrash va rivojlantirish yo‘lidagi muhim ilmiy institut sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Islom sivilizatsiya markazining musulmon davlatlari uchun ahamiyati.

Islom sivilizatsiyasi ko‘p asrlar davomida musulmon xalqlarini yagona ma’naviy, ilmiy va madaniy makonda birlashtirib kelgan. Qur’oni Karim va sunnat asosida shakllangan ilmiy-ma’rifiy an’analar Sharq va G‘arb tamadduni rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi globallashuv davrida ushbu boy merosni ilmiy asosda o‘rganish, saqlash va xalqaro miqyosda targ‘ib etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi musulmon davlatlari o‘rtasida ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, umumiy tarixiy xotirani asrash va ma’rifiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-ma’rifiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Markazning asosiy ahamiyatlaridan biri shundaki, u musulmon mamlakatlarining umumiy tarixiy va ma’naviy merosini yagona ilmiy asosda o‘rganish imkonini yaratmoqda. Islom sivilizatsiyasi faqat arab xalqlarining emas, balki turkiy, fors, hind, malay va boshqa musulmon xalqlarining ham ilmiy va madaniy yutuqlari bilan boyigan ko‘p qirrali sivilizatsiyadir. Islom sivilizatsiya markazi aynan shu merosni tizimli ravishda tadqiq etish, ilmiy muomalaga kiritish va xalqaro jamoatchilikka taqdim etish orqali musulmon davlatlari o‘rtasidagi ma’naviy birlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Markaz faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishdir. So‘nggi yillarda Markaz Islom hamkorlik tashkiloti (OIC), ICESCO, UNESCO hamda Saudiya Arabistoni, Misr, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Pokiston va boshqa mamlakatlarning ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirmoqda. Mazkur



hamkorlik qo'shma ilmiy tadqiqotlar, konferensiyalar, ilmiy seminarlar, qo'lyozmalar almashinuvi va mutaxassislar malakasini oshirish dasturlarini o'z ichiga oladi. Bunday hamkorlik nafaqat ilmiy tajriba almashish, balki musulmon davlatlari o'rtasida o'zaro ishonch va madaniy yaqinlikni kuchaytiradi.

Markazning xalqaro ilmiy hamkorlikdagi faoliyati nodir qo'lyozmalarni saqlash va tadqiq etish yo'nalishida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyoning turli kutubxonalari va arxivlarida saqlanayotgan Markaziy Osiyo allomalari merosiga oid qo'lyozmalarni aniqlash, ularning elektron nusxalarini yaratish, ilmiy tavsiflash va raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar musulmon davlatlari ilmiy salohiyatini yanada boyitmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida ushbu manbalardan dunyoning turli mamlakatlaridagi tadqiqotchilar foydalanish imkoniga ega bo'lmoqda.

Islom sivilizatsiya markazi madaniy diplomatiyani rivojlantirishda ham muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda xalqaro munosabatlarda madaniy diplomatiya davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashning samarali vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Markaz tomonidan tashkil etilayotgan xalqaro ko'rgazmalar, ilmiy forumlar, madaniy tadbirlar va konferensiyalar turli mamlakatlar olimlari va mutaxassislarini yagona ilmiy maydonda birlashtirmoqda. Natijada islom sivilizatsiyasining tarixiy va madaniy merosi xolis ilmiy yondashuv asosida dunyo jamoatchiligiga taqdim etilmoqda.

Markaz faoliyatining yana bir muhim jihatini diniy bag'rikenglik va sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirishga qo'shayotgan hissasidir. Islom dini tarixan ilm-ma'rifat, adolat, tinchlik va insonparvarlik tamoyillarini targ'ib qilib kelgan. Shu bois Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy va ma'rifiy loyihalarda islomning asl mohiyatini yoritish, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi ma'rifat bilan kurashish g'oyasi ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa musulmon davlatlarida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom e'tiqod va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musulmon mamlakatlari uchun Markazning ahamiyatini baholashda ta'lim va ilm-fan sohasidagi faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Markaz huzurida o'tkazilayotgan ilmiy seminarlar, mahorat darslari, xalqaro simpoziumlar va yosh tadqiqotchilar uchun tashkil etilayotgan ilmiy maktablar ilmiy salohiyatni oshirishga xizmat qilmoqda. Turli mamlakatlardan kelayotgan olimlar va talabalar uchun



yaratilayotgan ilmiy muhit yangi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga va ilmiy hamkorlikning kengayishiga zamin yaratmoqda.

Shuningdek, Markaz musulmon davlatlari oʻrtasida ziyorat va madaniy turizmni rivojlantirishga ham ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Imom al-Buxoriy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Hakim at-Termiziy va boshqa buyuk allomalar bilan bogʻliq tarixiy maskanlarning xalqaro miqyosda targʻib etilishi Oʻzbekistonning musulmon dunyosidagi nufuzini oshirmoqda. Bu esa nafaqat madaniy aloqalarni, balki iqtisodiy va turizm sohasidagi hamkorlikni ham rivojlantiradi.

Islom sivilizatsiya markazi turkiy xalqlarning umumiy tarixiy-maʼnaviy merosi.

Islom sivilizatsiya markazi Turkiy davlatlar tashkiloti, ICESCO va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikda umumiy tarixiy va madaniy merosni saqlashga qaratilgan qoʻshma tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlamokda. Turkiy xalqlar islom sivilizatsiyasining rivojlanishida muhim oʻrin tutgan xalqlar sirasiga kiradi. VIII–XV asrlar davomida Markaziy Osiyo, Xuroson va Anadolu hududlari islom ilm-fani, madaniyati va maʼrifatining yirik markazlariga aylandi. Aynan shu hududlarda yashab ijod qilgan mutafakkirlar nafaqat musulmon olami, balki jahon ilm-fani rivojiga ham ulkan hissa qoʻshdilar. Ularning ilmiy merosi bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkilotiga aʼzo mamlakatlar uchun umumiy tarixiy va maʼnaviy boylik sifatida qaraladi.

2019-yilda Naxichevan bitimi asosida faoliyatini yangi bosqichga olib chiqqan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) turkiy xalqlar oʻrtasida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorlikni mustahkamlashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan. Mazkur jarayonda umumiy tarixiy va madaniy merosni asrash, ilmiy tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlash hamda yosh avlodni tarixiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida eʼtirof etiladi. Shu nuqtai nazardan Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi TDTning madaniy-gumanitar hamkorlik yoʻnalishlari bilan uzviy bogʻliq boʻlgan ilmiy institut hisoblanadi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi ilmiy va madaniy hamkorlik

Soʻnggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida taʼlim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik izchil rivojlanmoqda. TDT huzuridagi Turk Akademiyasi, TURKSOY, Turk madaniyati va merosi jamgʻarmasi kabi institutlar umumiy tarix, til va madaniyatni oʻrganishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirmoqda. Islom



sivilizatsiya markazi mazkur tuzilmalar bilan ilmiy aloqalarni kengaytirish orqali islom sivilizatsiyasi tarixini o'rganish yo'nalishidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashi mumkin.

Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) hamda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi o'rtasida turkiy dunyoning mushtarak tarixi va boy madaniy merosini asrab-avaylash hamda uni kelajak avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida keng qamrovli Anglashuv memorandumini imzolandi [42]. Mazkur memorandumga muvofiq, har ikki muassasa qo'lyozmalar, muzey eksponatlari va arxiv hujjatlari kabi bebaho madaniy boyliklarni raqamlashtirish, qo'shma virtual muzeylar tashkil etish hamda xalqaro miqyosda ko'rgazma va forumlar o'tkazish kabi loyihalar orqali madaniy aloqalarni yanada chuqurlashtirishni maqsad qilgan.

Mazkur yo'nalishlar TDT doirasida ilmiy integratsiyani kuchaytirish bilan birga, turkiy xalqlarning umumiy sivilizatsion merosini xalqaro miqyosda keng targ'ib qiladi. (1-grafik)

ISLOM SIVILIZATSIYA MARKAZI VA TURKSOY TASHKILOTI HAMKORLIKNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI



ILM – MEROS – HAMKORLIK – KELAJAK

Bugungi xalqaro munosabatlarda madaniy diplomatiya davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Islom

sivilizatsiya markazi ushbu yo‘nalishda ko‘rgazmalar, xalqaro ilmiy forumlar, konferensiyalar va ma‘rifiy tadbirlar orqali O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini keng targ‘ib etmoqda.

Markaz faoliyati turkiy xalqlarning umumiy tarixini faqat milliy nuqtai nazardan emas, balki mintaqaviy va umumsivilizatsion yondashuv asosida o‘rganishga xizmat qiladi. Bu esa TDT doirasida o‘zaro ishonch, bag‘rikenglik va ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga ko‘maklashadi.

TURKSOY tomonidan 2026 yil aprel oyida Islom sivilizatsiyasi markazi **“Turkiy dunyodagi eng yaxshi muzey”** deb e‘tirof etildi. Sertifikat TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev tomonidan tantanali ravishda taqdim etildi [43]. Bu e‘tirof Markazning qisqa vaqt ichida xalqaro maydonda yuqori baholanayotganidan dalolat beradi. (1-rasm)



Shuningdek, Markaz tomonidan buyuk allomalarning ilmiy merosiga bag‘ishlangan ekspozitsiyalar, ko‘rgazmalar va ilmiy nashrlarning tayyorlanishi turkiy xalqlarning umumiy tarixiy xotirasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tashabbuslar yosh avlodda tarixiy merosga hurmat, ilm-fanga qiziqish va madaniy xilma-xillikni qadrlash kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Raqamli transformatsiya va ilmiy integratsiya istiqbollari.



Zamonaviy axborot texnologiyalari tarixiy merosni saqlash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu jihatdan Islom sivilizatsiya markazining raqamlashtirish yo‘nalishidagi faoliyati TDT mamlakatlari o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Bunday tashabbuslar tarixiy manbalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, ilmiy tadqiqotlar sifatini oshiradi hamda turkiy mamlakatlar o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni yanada mustahkamlaydi. (2-grafik)



Islom sivilizatsiya markazi Turkiy davlatlar tashkilotining rasmiy instituti bo‘lmasa-da, uning faoliyati TDTning madaniy-gumanitar hamkorlik maqsadlari bilan uyg‘unlashadi. Markaz umumiy tarixiy va ma’naviy merosni o‘rganish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, buyuk allomalar merosini xalqaro ilmiy muomalaga kiritish hamda madaniy diplomatiyani mustahkamlash orqali turkiy davlatlar o‘rtasidagi integratsiyaga amaliy hissa qo‘shmoqda. Kelgusida Islom sivilizatsiya

markazi, Turk Akademiyasi, TURKSOY va Turkiy davlatlar tashkilotining boshqa ixtisoslashgan institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish qo'shma ilmiy loyihalar sonini oshirish, umumiy raqamli meros infratuzilmasini yaratish va turkiy xalqlarning islom sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini xalqaro miqyosda yanada kengroq yoritish imkonini beradi. Bunday yondashuv nafaqat tarixiy merosni asrashga, balki ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalarida barqaror mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

Islom dini va madaniyati tarixini yoritishdagi Islom sivilizatsiya markazining hissasi.

Islom dini insoniyat tarixida eng yirik diniy-ma'naviy tizimlardan biri sifatida nafaqat e'tiqod va axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga, balki ilm-fan, madaniyat, san'at, huquq, ta'lim va ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanishiga ham ulkan ta'sir ko'rsatgan. VII asrdan boshlab shakllangan islom sivilizatsiyasi qisqa vaqt ichida keng hududlarga tarqalib, turli xalqlar va madaniyatlarni o'zaro bog'lovchi ilmiy-ma'rifiy makonga aylandi. Bu jarayonda Movarounnahr, Xuroson va Turkiston hududlari islom ilm-fanining yirik markazlari sifatida alohida mavqega ega bo'ldi. Aynan shu hududlardan yetishib chiqqan buyuk muhaddislar, faqihlar, mutafakkirlar va tabiatshunos olimlarning ilmiy merosi bugungi kunda ham jahon ilm-fani va madaniyati rivojida muhim o'rin tutadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ushbu boy tarixiy va ma'naviy merosni ilmiy asosda o'rganish, asrash va xalqaro miqyosda targ'ib etishga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda tashkil etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi mamlakatning ilmiy-ma'rifiy hayotida muhim institut sifatida shakllandi. Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri islom dini tarixi va madaniyatini xolis ilmiy yondashuv asosida tadqiq etish, tarixiy manbalarni tizimlashtirish va keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

Markazning eng muhim vazifalaridan biri buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosni o'rganish va uni zamonaviy ilmiy muomalaga kiritishdir. Markaz ushbu ilmiy merosni chuqur o'rganish, nashr etish va ilmiy izohlar bilan ta'minlash orqali islom sivilizatsiyasining jahon tamadduniga qo'shgan hissasini ilmiy asosda yoritmoqda.

Islom sivilizatsiya markazining yana bir muhim faoliyat yo'nalishi nodir qo'lyozmalarni saqlash, restavratsiya qilish va raqamlashtirishdan iborat. O'zbekiston hamda xorijiy mamlakatlar kutubxonalarida saqlanayotgan



qo‘lyozmalar islom tarixini o‘rganishda birlamchi manbalar sifatida alohida ahamiyatga ega. Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan raqamlashtirish ishlari ushbu manbalarni uzoq muddat saqlash bilan bir qatorda, ularni xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun ochiq va qulay ilmiy resursga aylantirish imkonini bermoqda. Elektron kataloglar va raqamli arxivlar tadqiqotchilarga tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish hamda yangi ilmiy xulosalar chiqarishda katta yordam beradi.

Markazning ekspozitsiya va muzey faoliyati ham islom dini tarixi va madaniyatini ommalashtirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy multimedia texnologiyalari yordamida yaratilgan ko‘rgazmalar orqali tashrif buyuruvchilarga islom sivilizatsiyasining shakllanish bosqichlari, buyuk allomalarning hayoti va faoliyati, ilmiy maktablarning rivojlanishi hamda tarixiy qo‘lyozmalar haqida keng qamrovli ma’lumotlar taqdim etiladi. Bunday ekspozitsiyalar tarixiy voqealarni faqat matnlar orqali emas, balki vizual vositalar yordamida ham tushunishga yordam beradi.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va radikalizm xavfining kuchayishi islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini ilmiy asosda yoritish zaruratini yanada oshirmoqda. Shu jihatdan Islom sivilizatsiya markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy va ma’rifiy faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Markaz tomonidan tayyorlanayotgan ilmiy nashrlar, ommabop adabiyotlar, hujjatli filmlar va ma’rifiy loyihalar orqali islom dinining tinchlik, bag‘rikenglik, adolat, ilm-ma’rifat va ezgulik g‘oyalariga asoslanganligi keng jamoatchilikka tushuntirilmoqda. Bu esa diniy savodxonlikni oshirish, yoshlarni turli buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish va sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantiradi.

Shuningdek, Markaz ta’lim va ilmiy kadrlar tayyorlash sohasida ham muhim o‘rin egallaydi. Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va xalqaro markazlar bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan ilmiy seminarlar, malaka oshirish kurslari va yozgi maktablar yosh tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Tarix, manbashunoslik, qo‘lyozmashunoslik, islomshunoslik va sharqshunoslik yo‘nalishlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar mamlakatning ilmiy salohiyatini mustahkamlash bilan birga, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirishga ham zamin yaratmoqda.

Markaz faoliyatining yana bir muhim jihati islom madaniyatining moddiy va nomoddiy merosini asrash bilan bog‘liqdir. Tarixiy masjidlar, madrasalar, maqbaralar, kutubxonalar va boshqa me’moriy obidalar haqidagi ilmiy



ma'lumotlarni tizimlashtirish, ularni restavratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda xalqaro miqyosda targ'ib etish ishlari madaniy merosni asrashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tarixiy obidalar nafaqat me'moriy yodgorlik, balki islom sivilizatsiyasining ilmiy va madaniy taraqqiyotini aks ettiruvchi noyob tarixiy manbalar sifatida baholanadi.

1-jadval. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar

No	Ilmiy-amaliy taklif	Maqsadi	Kutilayotgan natija
1	 Islom sivilizatsiya markazi va Turkiy davlatlar tashkiloti o'rtasida tarixiy va madaniy merosni o'rganishga qaratilgan doimiy ilmiy hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish.	Ilmiy hamkorlikni institutsional asosda mustahkamlash hamda qo'shma tadqiqotlarni yo'lga qo'yish.	Xalqaro ilmiy aloqalar kengayadi, qo'shma ilmiy loyihalar va tadqiqotlar soni ortadi.
2	 Turkiy xalqlarning islomiy qo'lyozmalarini o'z ichiga olgan yagona elektron ilmiy platforma va raqamli kutubxonani yaratish.	Qo'lyozma merosini raqamlashtirish va ilmiy foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.	Yagona elektron baza shakllanadi, ilmiy axborot almashinuvi va tadqiqotlar samaradorligi oshadi.
3	 Islom sivilizatsiyasi bo'yicha xalqaro ilmiy forumlar, qo'shma tadqiqot loyihalari va akademik almashinuv dasturlarini kengaytirish.	Xalqaro ilmiy integratsiyani kuchaytirish va tajriba almashinuvini rivojlantirish.	Olimlar o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi, ilmiy salohiyat va xalqaro nufuz oshadi.
4	 Buyuk allomalar ilmiy merosini zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt vositalari yordamida kataloglashtirish va tadqiq etish.	Ilmiy merosni zamonaviy texnologiyalar asosida tizimlashtirish va ilmiy tahlil qilish.	Sun'iy intellekt asosidagi kataloglar yaratiladi, ilmiy merosni o'rganish sifati va tezligi oshadi.
5	 Markazning xalqaro ilmiy nashrlar, grant loyihalari va ilmiy tarmoqlardagi ishtirokini yanada faollashtirish.	Markazning xalqaro ilmiy maydondagi faolligi va raqobatbardoshligini oshirish.	Xalqaro grantlar, ilmiy nashrlar va hamkorlik tarmoqlaridagi ishtirok ko'lami kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, Islom sivilizatsiya markazi bugungi kunda O'zbekistonning ilmiy va ma'naviy salohiyatini namoyon etuvchi, musulmon davlatlari o'rtasidagi ilmiy-madaniy hamkorlikni rivojlantiruvchi hamda islom sivilizatsiyasining boy merosini jahon ilmiy hamjamiyatiga tanituvchi nufuzli ilmiy markaz sifatida faoliyat yuritmoqda. Uning faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va zamonaviy ilmiy texnologiyalarni joriy etish nafaqat O'zbekiston, balki butun musulmon olamining umumiy ma'naviy merosini asrash va kelajak avlodlarga yetkazish yo'lidagi muhim strategik vazifalardan biri bo'lib qoladi. Mazkur yo'nalishdagi izchil sa'y-harakatlar Islom sivilizatsiya markazining xalqaro ilmiy makondagi nufuzini mustahkamlash, turli sivilizatsiyalar



o‘rtasidagi muloqotni rivojlantirish va insoniyatning umumiy madaniy merosini boyitishga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi PQ–3080-son "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi** davlat dasturlari.

Asosiy manbalar

4. **Qur‘oni Karim.** – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021.
5. Al-Buxoriy, I. (2019). *Al-Jome‘ as-sahih*. Toshkent: Hilol-Nashr.
6. At-Termiziy, M. I. (2018). *Al-Jome‘ as-Sunan*. Toshkent: Hilol-Nashr.
7. Moturidiy, A. M. (2020). *Kitob at-Tavhid*. Toshkent: Hilol-Nashr.
8. Marg‘inoniy, B. (2019). *Al-Hidoya*. Toshkent: Adolat.

Ilmiy adabiyotlar

9. Beruniy, A. R. (2018). *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar (Osor ul-boqiya)*. Toshkent: Fan.
10. Ibn Sino, A. A. (2019). *Tib qonunlari*. Toshkent: Fan.
11. Xorazmiy, M. (2017). *Al-jabr va al-muqobala*. Toshkent: O‘zbekiston.
12. Farg‘oniy, A. (2018). *Astronomiya asoslari*. Toshkent: Fan.
13. Ulug‘bek, M. (2019). *Ziji Jadidi Ko‘ragoniy*. Toshkent: Fan.
14. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston.

Xalqaro tashkilotlar nashrlari

16. UNESCO. (2021). *World Heritage and Cultural Diversity*. Paris: UNESCO.
17. ICESCO. (2021). *Islamic World Cultural Heritage Strategy*. Rabat: ICESCO.



18. Organization of Islamic Cooperation (OIC). (2022). *OIC Charter*. Jeddah.
 19. Organization of Turkic States. (2022). *Turkic World Vision – 2040*. Istanbul.
 20. Organization of Turkic States. (2023). *Annual Report*. Istanbul.
- Islom sivilizatsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar**
21. Lapidus, I. M. (2014). *A History of Islamic Societies* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
 22. Esposito, J. L. (Ed.). (2009). *The Oxford Encyclopedia of the Islamic World*. Oxford: Oxford University Press.
 23. Nasr, S. H. (2006). *Islamic Philosophy from Its Origin to the Present*. Albany: State University of New York Press.
 24. Armstrong, K. (2002). *Islam: A Short History*. New York: Modern Library.
- Islom sivilizatsiyasi va Markaziy Osiyo bo'yicha adabiyotlar**
25. Soucek, S. (2000). *A History of Inner Asia*. Cambridge University Press.
 26. Komatsu, H., et al. (Eds.). (2013). *History of Civilizations of Central Asia*. Paris: UNESCO Publishing.
 27. Starr, S. F. (2013). *Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane*. Princeton: Princeton University Press.
 28. Shayxulislom Ollohshukur Poshshozoda “*Qardoshlik va ittifoqchilikning oliy nuqtasi*” Boku. 2026 yil.

Elektron manbalar

33. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi rasmiy sayti. <https://islamic-civilization.uz>
34. Organization of Turkic States rasmiy sayti. <https://www.turkicstates.org>
35. UNESCO rasmiy sayti. <https://www.unesco.org>
36. ICESCO rasmiy sayti. <https://www.icesco.org>
37. Organization of Islamic Cooperation rasmiy sayti. <https://www.oic-oci.org>
38. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. <https://president.uz>
39. <https://president.uz/oz/lists/view/9017>.



40. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/12/islamic-civilization-centre/>.
41. <https://yuz.uz/uz/news/islomdan-avvalgi-davr-tsivilizatsiyalari->
42. <https://www.turksoy.org/uz-UZ/Yangiliklar/turksoy-va-ozbekiston-islom-sivilizatsiyasi-markazi-ortasida-madaniy-hamkorlikni-rivojlantirish-boyicha-tarixiy-memorandum-imzolandi>
43. <https://iccu.uz/uz/news/1377>



Research Science and Innovation House

